

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA INGLIZ TILIDAGI SO’ZLARNI
TINGLAB TUSHUNISH KO’NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH**

Ismatullayeva Madinabonu Akmaljon qizi
ADPI 2-kurs Maktabgacha ta’lim yo’nalishi
magistranti

Annotatsiya: Maqolada maktabgachga yoshdagi bolalarda tinglab tushunish ko’nikmalarini shakllantirish va ular orqali ingliz tiliga bo’lgan qiziqishini oshirish yuzasidan mulohazalar bayon etilgan.

Kalit so’zlar: tinglash, tushunish, diqqat, nutq, o’yin, talaffuz

Annotation: The article contains comments on the formation of listening comprehension skills in preschool children and increasing their interest in the English language through them.

Key words: listening, understanding, attention, speech, game, pronunciation

Аннотация: В статье содержатся комментарии по вопросам формирования навыков понимания на слух у детей дошкольного возраста и повышения через них интереса к английскому языку.

Ключевые слова: аудирование, понимание, внимание, речь, игра, произношение.

So’nggi yillarda chet tilini o’qitishni boshlash va tilga bo’lgan qiziqishini rivojlantirishga Maktabgacha ta’lim tashkilotlaridan to ta’limning keyingi bosqichigacha qamrab olingan. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “O’zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o’rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari tog’risida” 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son qaroriga muvofiq.[1]

Ma’lumki, erta yoshdan boshlab bolajonlarga chet tilini o’rgatishning eng muhim davri hisoblanadi va shu sababdan yosh avlodni ingliz tilini o’rgatish uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ikkinchi tilni o’rgatishda turli didaktik o’yinlardan, ko’rgazmali qurollardan va axborot texnika vositalaridan foydalangan holda mashg’ulotlar olib borilmoqda. Bu nafaqat bolalarni ingliz tiliga qiziqishini uyg’otadi va ulardan oqilona foydalanish orqali ularning xotira, diqqat, nutq madaniyatiga ham ta’sir ko’rsatadi. Mashg’ulot davomida til o’rgatuvchi murabbiy rangli ko’rgazmalardan foydalangan holda yangi so’zlarni to’g’ri talaffuz qilishni o’rgatadi shuningdek, bolalarning sevimli multfilimlari ingliz tilida ko’rsatish orqali ham bolalarni tinglab tushunish qobiliyatlari asta-sekin rivojlanib boradi. Yangi so’zni tinglab, shu bilan birga rasmiy yoki jonli variantida ko’rishi natijasida ingliz tilidagi so’zlarni xotirada oson saqlaydi. Bolalarda kattalar va multfilm qahramonlariga taqlidchanligi sababli so’zni to’g’ri talaffuz ko’nikmasi ham hosil bo’ladi. Bolajonlar uchun tashkil etilgan multfilmlardagi ayrim oson qo’shiqlarni tinglab yod olib, ular bilan teng kuylashiga ko’p bor kuzatganmiz, bu esa majburiy emas balki, bolajonlar qiziqishi va taqlidchanligi asosida yuzaga chiqqanini ko’rishimiz mumkin.

K.A.Krilovaning ta’kidiga ko’ra, tinglab tushinish bo’yicha muntazam mashg’ulotlar olib borilishi bugungi kunda juda dolzarb bo’lib tinglamasdan nutq muloqotini rivojlantirish mumkin emas. Tinglash tushunchasi tovushli nutqni idrok etish va

tushunish jarayonini o'z ichiga oladi. Tinglash (Listening), albatta, ingliz tilini o'rganishda muhim aspektlardan biridir” [2,57].

Nutqni tinglab tushunish deganda, ovozli nutq (gapishtish) chog'ida qulq solish, idrok etish va fahmlash anglanadi. Umuman „nutq“deganda gapishtish, tinglab tushunish, o'qib tushunish va yozuv tushuniladi. Aslida gapishtishni tinglab tushunish” degan ma'qulroq.

O'zbek metodist olimlaridan Jamol Jalolovning “Chet til o'qitish metodikasi” darsligida eshitishga quyidagicha fikr bildiradi: Eshitish analizatorini mashq qildirishning chet til o'rganishda ahamiyati katta, chunki u nutq oqimidagi fonemalar va ritm-melodiya hodisalarini farqlashda yetakchi rol o'ynaydi. Eshitish analizatori nutq harakat analizatori bilan yaqin aloqada bo'ladi. Artikulyatsiya bilan eshitish o'zaro bog'liq, ikkala analizator bir-birining ishini nazorat qilib turadi. Nutq faoliyati turlarini sodir etilishida analizatorlarning o'zaro harakati quyidagi tartibda kuzatiladi: gapishtishda yetakchi nutq harakat, qo'shimcha-eshitish, o'qishda-ko'rav, qo'shimcha-nutq harakat analizatori xizmat qiladi.” [3.27].

Maktabgacha yoshdag'i bolalarda kattalarga nisbatan eslab qolish qobiliyati yuqori bo'lganligi sababli tinglab o'z xotirasida saqlab qoladi. Mashg'ulot davomida bolajonlar uchun qo'shiqlardan foydalanish ularni zeriktirmasdan hamda toliqtirmasdan tilga bo'lgan qiziqishini yanada oshiradi. Boshida biroz qiyinday tuyilishi mumkin biroq bolalarga muntazam tinglatilganda hamda qo'shiqning ma'nosini tushuntirilganda va qo'shiq ritmiga xos harakatlar birgalikda davomiy tarzda olib borilishi o'z foydasini beradi. Bu orqali bolada tinglash ko'nikmasi shakllanadi, xotirasi mustahkamlanadi va jamoada ishlashni o'rganadi. Yod olgan qo'shiqlarni qayta kuylashi natijasida nutq madaniyati rivojlanadi hamda o'ziga bo'lgan ishonchi o'sadi. Albatta har bir qo'shiq ularning yosh guruhiba mos bo'lishi va inglizcha videolar orqali tashkil etilishi maqsadga muvofiq. Shuningdek mutaxassislarining fikricha, bolaning birinchi yilidayoq ikkinchi tilni tanishtirib borish uni oson o'zlashtirishiga yordam bo'lishini ta'kidlashadi. Ammo har qanday holatda ham bolaning psixologik va til o'zlashtirish qobiliyatini hisobga olish nihoyatda muhim omil ekanligini unutmasligimiz darkor. Har qanday vaziyatlar va faoliyatlar zamirida chet tilini o'rgatish jarayonida materialni yod olish tufayli, ushbu faoliyatlar ravon va tushunarli tarzda chet tilida olib borilishi maqsadga muvofiq. Chet tilidagi muloqot vaqtini ona tilidagi muloqot vaqtiga yaqinlashtirish lozim. Albatta, murabbiyning harakati, imo-ishorasi va chet tilida ravon nutqi va gapishtish ohanggi bilan bolani o'ziga jalg qila olishi, til o'rgatishdagi eng birinchi va asosiy muvaffaqiyatlardan biridir. Yangi o'rganilayotgan so'zni til o'rgatuvchi murabbiy albatta ko'rgazmalardan foydalanib yoki ular bilan birgalikda o'sha so'zni rasmini chizish orqali yod oldiradi va mavzuga oid tashkil etilgan o'yin davomida shu so'z so'ralganda yoki tendoshlari tomidan o'sha so'z talaffuz qilinganda yanada xotirasida tez qoladi. Misol uchun o'yinchoqlar mavzusida mashg'ulot olib borilsa, til tarbiyachisi bilan so'zni to'g'ri talafuz qilishni o'rganadi va qayerdaki o'sha o'yinchoqlarni ko'rganda darhol xayoliga ingliz tilidagi varianti keladi va til murabbiyidan o'sha so'zning talaffuzini qanday eshitib tushingan bo'lsa shunday talaffuz etadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bolalarning rivojlanishi turli davrlarni o'z ichiga olgani kabi tinglab tushinish ko'nikmasi ham bolaning rivojlanish davrlarida turlichay o'ziga xosdir. Shu bois biz ularni til o'rganishga majburlamasdan yosh xususiyatidan kelib

chiqib mashg'ulotlar tashkil etish, turli didaktik, syujetli o'yinlarni yaratishimiz va ularning sevimli mashg'uloti bo'lgan tasviriy faoliyat kabi mashg'ulotlar bilan uyg'un holda olib borishimiz maqsadga muvofiqdir. Bolaning aynan ilk yoshida o'rgangan bilimi ajdodlarimiz aytganidek "toshga bitilishi" bejiz emas ekan. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib chet tillarini ham bolalarga erta yoshida o'rgatishdagi til ko'nikmalarini va malakalarining oson o'zlashtirishiga sabab bo'ladi. Ayniqsa, ushbu bilim, malakalar turli o'yin va ta'limiy faoliyatlar orqali singdirib borilsa, bola chet tilini o'z ona tilisi kabi tabiiy tarzda rivojlantirib boradi. Ta'limiy o'yinlar nafaqat bilim, ko'nikmalarini va malakalarini shakllantirishga, balki shu bilan birga u bolani jismona sog'lom rivojlanishining ta'minlaydi, ruhan tetiklashtiradi, o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlashiga hamda atrofdagilar bilan ijtimoiy munosabatlarini shakllantirishga katta ko'mak beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 2021-yil 19-maydagи PQ-5117-son qarori.
<https://lex.uz/uz/docs/-5426736>

2. Krilova K.A. “Chet tili darslarida tinglashni o'rgatish texnikasi. Ingliz tili darslarida tinglashni o'rgatish metodikasi Ingliz tili darslarida tinglashni o'rgatish bosqichlari”. //Английский язык. Все для учителя! № 6 (42) июнь 2015.

3. Jamol Jalolov. Chet tili o`qitish metodikasi, Toshkent, “O`qituvchi”, 1996.